

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**IJTIMOIIY FANLAR VA MA`NAVIYAT ASOSLARI  
KAFEDRASI**

**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARIDAN  
ATAMALAR TO`PLAMI**

**(“Davlat va huquq asoslar” fani o`qituvchilari va  
o`quvchilar uchun)**



**TUZUVCHI : O`QITUVCHI BOYMIRZAYEVA RAHIMAXON**

Namangan 2012

Ushbu metodik tavsiyada “Davlat va huquq asoslari ” fani bo`yicha asosiy tushunchalarni qisqacha izohi berilgan. Metodik tavsiya umumiy o`rta ta`lim maktablari huquqshunoslik fani o`qituvchilari va o`quvchilari hamda davlat va huquq nazariyasi sohasiga qiziquvchilarga foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Tuzuvchi : o`qituvchi R.Boymirzaeva

Taqrizchilar: f.f.n.dotsent, A.Mirzaahmedov

O`qituvchi A.Ro`zmatov

Mazkur metodik tavsiya Namangan VPKQTMOI ijtimoiy fanlar va ma`naviyat asoslari kafedrasining 2012-yil \_\_\_\_dagi yig`ilishida (\_\_\_\_-sonli bayonnoma) muhokama qilindi va institut o`quv-uslubiy kengashinig 2012-yil \_\_\_\_dagi \_\_\_\_-sonli qaroriga asosan tasdiqlanib,chop etishga ruxsat berildi.

1. **Nazariya** – jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini mujassamlashtirgan amaliyotning mantiqan ilmiy umumlashtirishidir.
2. Davlat va huquq nazariyasi – ijtimoiy hodisa bo'lib, davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan.
3. Davlat va huquq – nazariyasini qonunlari deb, davlat va huquq hodisaslari, jarayonlarining muxim, zaruriy umumiy, nisbatan barqaror bo'lgan, rivojlanish xususiyati va yo'nalishlarini belgilaydigan, aniq bir natijalarini keltirib chiqarishga moyillik tug'diradigan munosabatlar majmuiga aytiladi.
4. Davlat va huquq nazariyasi fanining ob'ekti – mavjud voqelikda yuz berayotgan, davlat va huquqqa tegishli hodisa hamda jarayonlar tashkil etadi.
5. Davlat va huquq nazariyasi fanining metodlari – davlat va huquqni o'rganish usullari bo'lib, davlat va huquqning mohiyati, turli jihatlari va xususiyatlarini, rivojlanishi qonuniyatlari va printsiplarini o'rganishga imkon beradi.
6. Milliy huquqmy mafkura – o'zbek davlatchiligiga bo'lgan muhabbat, uni sevish, e'zozlash, ardoqlash va ravnaq toptirish haqidagi siyosiy – huquqiy g'oyalar va qarashlar majmuidir.
7. Falsafa – tabiat va jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. SHu boisg u davlat va huquq masalalarining umumiy tarzda, ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib chiqadi.
8. Sotsiologiya – yahlit tizim bo'lmish jamiyat hamda u bilan aloqadorlikda o'rganiladigan alohida ijtimoiy guruhlar sotsial jarayonlar haqidagi fan bo'lib, davlat va huquq nazariyasi fani uchun dastlabki empirik ma'lumotlarni to'plab berish vazifasini bajaradi.
9. Iqtisodiy fanlar – ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, xo'jalik hayotini tashkil etish, xo'jalik sohalari, mehnat, moliya, kredit kabi masalalarni o'rganib davlat va huquq nazariyasining o'zaro ta'siri, ularning bir – biri bilan o'zaro aloqasi, davlat va huquqning iqtisodiyotga qanchalik bog'liq ekanligini aniqlashga imkon beradi.
10. Siyosatshunoslik fani – siyosat, uning shakllari, siyosiy jarayonlar va siyosiy birlashmalar, jumladan, partiyalar, siyosiy hokimiyatga va davlat hokimiyatiga erishish vositalari, fuqarolik jamiyati, davlat va shaxsning o'zaro munosabati kabi hodisalarni o'rganadi. Siyosatshunoslik fani o'zining keng qamrovligiga ko'ra, davlag va huquq nazariyasi fani uchun metodologik asoslardan biri vazifasini bajaradi.

11. Huquqshunoslik fani – ijtimoiy hodisa sifatida davlat va huquqning kelib chiqishi, rivojlanishi va amal qilishining umumiy va maxsus qonuniyatlari to'g'risidagi huquqiy bilimlar tizimidir.

12. Jamiyat – muayyan tabiiy ehtiyoj va manfaatlariga ko'ra birlashgan kishilarning ma'lum tarzda tashkil etilgan tizimidir. Kishilar, ularning tashkilotlari, jamoalari turli iqtisodiy, ma'naviy, ahloqiy, diniy va boshqa munosabatlar orqali jamiyatga birlashadi.

13. Fuqarolik jamiyati – davlatning fuqarolaridan ya'ni o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan hamda ahloqiy, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega kishilardan iborat jamiyatdir.

14. Urug' – jamiyatning asosiy negizi va uning boshqarishni birlamchi shakli bo'lib, bu o'zaro qondosh kishilarning shaxsiy ittifoqi xisoblanadi. Urug'larning xududi va til jihatdan yaqinligiga ko'ra birlashishi fratriyani, bir qancha fratriyaning ittifoqi esa qabilalarni tashkil etadi.

15. Ibtidoiy jamoa tuzumi – insoniyat tarixidagi eng birinchi ijtimoiy–iqtisodiy formatsiya bo'lib, bu jamiyatda sinflar ham, xususiy mulkchilik ham, davlat hokimiyati va huquqning ham bo'lmasligi bilan va ishlab chiqarish kuchlari, iqtisodiy munosabatlarning juda past darajada ekanligi bilan xarakterlanadi.

16. Xokimiyat – jamiyatning moddiy shart – sharoitlari bilan belgilangan muayyan tuzumlarning insonlar ongini butun – jamiyat yoki uning bir qismi xoxish irodasiga bo'ysundirishdir.

17. Ijtimoiy xokimiyat – ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hokimiyat klassik formada bo'lib, o'z – o'zini boshqarish va ibtidoiy demokratiya ko'rinishida bo'lganligini ko'rsatadi.

18. Siyosiy xokimiyat – bu ijtimoiy hokimiyatning bir turi bo'lib, maxsus mexanizm mavjud bo'lgan va aynan shunga ko'ra davlat maqomiga ko'tarilgan va bularsiz faoliyat ko'rsatish mumkin bo'lmagan hokimiyatdir.

19. Mononorma – ibtidoiy jamiyatning bo'linmagan, yahlit, o'ziga xos normalari bo'lib u huquqdan farq qilib, boshqa holatdagi tartibga soluvchi tizim sifatida jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichida, sinfiy davlatlashtirilgan, tashkiliy shaklda namoyon bo'ladi. Ular ahloqdan ham farq qiladi.

20. «Neolit inqilobi» – insoniyatning ishlab chiqarish iqtisodiyotiga o'tishiga, ibtidoiy jamoaning sotsial tabaqalanishiga, sinflarning kelib chiqishiga, davlatning paydo bo'lishiga olib kelgan.

21. Suverenitet – xalqning suveren irodasini ifodalovchi davlat hokimiyatining oliyligi, mustaqilligi bo'lib, mamlakatning ichki va xalqaro munosabatlarda butunlay mustaqilligini bildiradi.

22. Davlat – suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus majburlov apparatiga ega bo'lgan, shuningdek, huquq normalari(qoidalari)ni yaratishga qodir bo'lgan, kishilik taraqqiyotining ma'lum bosqichida kelib chiqqan, ommaviy hokimiyatning siyosiy – hududiy tashkiloti.

23. Davlatning mohiyati – murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u sinfiy va umumijtimoiy xususiyatlar bilangina cheklanmaydi. Har qanday davlatning mohiyati aniq tarixiy sharoitlarda kelib chiqadi, unda u yoki bu jihatlar ustunlik qiladi.

24. Davlat tipologiyasi – davlatning mohiyatan o'ziga xos xususiyatlarini ajratishda yoki biror tipga mansubligini belgilashda foydalanadigan ta'limot, bilimlar tizimidir.

25. Totalitar davlat – barcha hokimiyat hukmron, elita qo'lida bo'lib, boshqalar davlatni boshqarishdan chetlatiladigan davlat.

26. Avtoritar davlat – haqiqiy hokimiyat elita qo'lida bo'lib, shaxsning manfaatlari davlat manfaatlariga qurbon qilinadigan davlat. Siyosiy sohada ijozat etiladiganidan tashqari, barcha narsa taqiqlanadi.

27. Liberal davlat – jamiyat hayotining barcha sohalarida fuqarolarning huquq va erkinliklari rasman tengligi amal qiladigan, fuqarolarning davlat ishlarida rasman qatnashuvlariga yo'l qo'yiladigan davlat.

28. Demokratik davlat – fuqarolarning davlat va jamoat ishlarini boshqarishda qatnashishi huquqlarini ta'minlaydigan, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qonunda bevosita taqiqlanmagan harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yadigan davlat.

29. Davlat shakllari – murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan davlat mohiyatini bilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlat boshqaruvi, davlat tuzilishi va siyosiy rejim (davlat idora usuli) shaklida o'z ifodasini topadigan davlat organlari strukturasi va tashkilotidir.

30. Davlat boshqaruvi – muayyan davlatda hokimiyatni uyushtirish usullarining majmui bo'lib u oliy davlat hokimiyatini tashkil etish, ayni paytda davlatning oliy va markaziy idoralari, ularni tarkibi, vakolatlari, paydo bo'lish tartibi, shuningdek ulardan xalqning ishtirok etish darajasig mazkur idoralar vakolatlarining muddatini nazarda tutadi.

31. Monarxiya – oliy davlat hokimiyatini monarx (imperator, podsho, qirol) ifodalaydigan boshqaruv shakli bo'lib, u odatda taxtga merosxo'rlik bo'yicha egalik qiladi, ba'zan esa ular umrbod saylanadi.

32. Cheklangan monarxiya – tabaqa vakillik va konstitutsiyaviy monarxiya turlari mavjud. Konstitutsiyaviy monarxiya esa o'z navbatida dualistik va parlamentar monarxiyaga bo'linadi.

33. Mutlaq monarxiyaning asosiy xususiyati – monarxning mutlaq hokimiyatini cheklaydigan biror davlat idorasining yo'qligi, hokimiyatdan muddatsiz, ya'ni umrbod foydalanishi, taxtni meros bo'yicha egallashi.

34. Parlamentar monarxiya – monarxiya hokimiyati qonun chiqarish sohasida ham, davlatni boshqarish sohasida ham cheklangan. Parlamentar monarxiya ham, dualistik monarxiya ham o'z mohiyatiga ko'ra konstitutsiyaviy monarxiyadir.

35. Konstitutsiyaviy monarxiya – ham monarx, ham parlament, ya'ni hokimiyatning ikki manbai bor bo'lib, monarx xukumat tarkibini o'zgartirish, farmonlar chiqarish, parlamentni muddatidan ilgari tarqatib yuborish huquqiga ega.

36. Bonopartistik monarxiya – xukumat boshlig'i–imperatorning tanxo xukmronligining xaddan tashqari kuchaytirib yuborish, parlamentning rolini yo'qqa chiqarish, politsiya nazoratini kuchaytirish va xokazolar bilan farq qiladi.

37. Dualistik monarxiya – monarx (uning o'zi ham davlat boshlig'i, ham xukumat boshlig'i) butun ijroiya hokimiyatini, vazirlar, gubernatorlar va boshqa mansabdor shaxslarni tayinlash huquqini, veto huquqini va cheklanmagan parlamentni tarqatish huquqini o'z qo'liga olgan bo'ladi.

38. Respublika – boshqaruvning shunday shakli, unda davlat boshliqlari va oliy organlarning saylab – qo'yilishini hamda qonun chiqaruvchi organlarining kollegial ishlashini nazarda tutadi.

39. Parlamentar respublika – ijroiya hokimiyati boshlig'i (Bosh vazir) va uning maxkamasi – parlamentdagi ko'pchilik tomonidan tayinlanadi va nazorat qilinadi.

40. Prezidentlik respublikasi – boshqaruvning prezidentlik shakli umumxalq yo'li bilan saylangan Prezidentning umummilliy manfaatlarining ifodachisi, millatning ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

41. Sotsialistik respublika – boshqaruvning maxsus shakli bo'lib, u sotsialistik inqilobi natijasida bir qator mamlakatlarda vujudga kelgan va marksizm–leninizm nazariyotchilarning fikricha, ishchilar sinfi boshchiligida xalqning to'la – to'kis hukmronligini ta'minlaydigan chinakam demokratik respublika bo'lishi lozim edi.

42. Xalifalik – oliy dunyoviy (siyosiy) hokimiyatni amalga oshirish va musulmon jamoasi darajasida dinni qo'llab – quvvatlashdan iborat bo'lgan tashkilotdir.

43. Davlat tuzilishi – davlat hokimiyatining ma'muriy–xududiy uyushuvi, davlat va uni tashkil etgan xududlarining, ayrim qismlarining, markaziy va mahalliy idoralar orasidagi munosabatlarning tabiati tushuniladi.

44. Unitar davlat – ma'muriy–xududiy qismlar (viloyatlar, tumanlar, grafliklar, gubernalar)ga bo'linib, yagona tizimdagi hokimiyat va boshqaruv organlariga, fuqarolikka, muayyan xududga, davlat chegarasiga va o'z qonunchiligiga ega bo'lgan davlatdir.

45. Federativ davlat – murakkab davlat bo'lib, xududi uning sub'ektlari xududidan tashkil topadi, federatsiya sub'ektlari o'z konstitutsiyasi, o'zlarining oliy qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'ladi, federatsiya sub'ektlari va federatsiyaning vakolatlari yagona konstitutsiyasi bilan ajratiladi.

46. Konfederatsiya – davlatlarning muayyan ittfoqi bo'lib siesiy, xarbiy, iqtisodiy maqsadlar uchun shartnoma yoki bitim asosida tuzilib, odatda muvaqqat bo'ladi, keyinchalik konfederatsiya tarqab ketadi yoki federatsiya shakliga o'tadi.

47. Davlatlar hamdo'stligi – siyosiy–iqtisodiy manfaatlarning yoki kollektiv kelishuvi va harakat qilishning yagona yo'lini ishlab chiqish asosida hal etiladigan boshqa manfaatlarning utmumiyligi tufayli bir–biri bilan bog'lanadigan mustaqil, suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashishidir.

48. Sissiy rejim – davlat hokimiyatini amalga oshirish usuli va yo'llarining majmuasi bo'lib, mamlakatdagi siyosiy vaziyatni, ya'ni jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini bildiradi.

49. Demokratiya – hokimiyatning faqat xalqqa tegishli ekakligi, davlat xalq irodasini ifodalashi va uning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi, davlatning olib borayotgan siyosati faqat inson va jamiyatning farovonligini ta'minlashga qaratilgandir.

50. Vakillik demokratiya – xalqning o'z hokimiyatini vakillik idoralari, ya'ni demokratik hokimiyatning va mahalliy o'z–o'zini boshqarish idoralarining saylab qo'yiladigan organlari orqali amalga oshirilishini bildiradi.

51. Bevosita demokratiya – xalqning demokratik hokimiyat masalalarini hal etishda umumxalq ovoz berishi (referendum) yo'li bilan to'g'ridan–to'g'ri ishtirok etishi.

52. SHarqona demokratiya – g'arb demokratiyasidan farq qiluvchi ijtimoiy tushuncha bo'lib, milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga xurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin maxalida ham tomonlarning kelishuvlariga asoslanadigan faoliyatdir.

53. G'ayridemokratik rejim – davlat organlari demokratik printsiplarga va qoidalarga rioya etmasliklari, fuqarolarning huquq va erkinliklari poymol etilib qo'pol ravishda buzilishi, muholifat bartaraf etilishi, ba'zan esa parlament singari demokratik institutlar yo'q qilinishi bilan harakterlanadi.

54. Totalitar rejim – avtoritar idora usulining uchiga chiqqan shakli bo'lib, barcha narsani qamrab olgan, jamiyatning jamiki soxalarini nazorat qiladigan va tartibga soladigan hokimiyatdir.

55. SHaxsiy hokimiyat rejimi – totalitarizm ko'rinishlaridan biri bo'lib u ko'pkina jahatlari bilan totalitar rejimga o'xshab ketadi, lekin «shaxsga sig'inish», dohiyga sig'inish ayniqsa kuchayadi.

56. Fashistik rejim – idora usuli totalitarizmning avj olgan shakillaridan bo'lib, u milliy mafkura, bir millatning boshqa millat ustidan ustunligini ta'kidlash, o'ta agressivlik bilan tasniflanadi.

57. Avtoritarizm – haqiqiy hokimiyat tor elitar doira qo'lida bo'lib, shaxsiy manfaatlari yo'lida qurbon qilinadigan hokimiyatdir.

58. Despotiya rejimi – hokimiyat faqat bir kishi tomonidan boshqariladigan mutloq monarxiyaga xosdir, despotiyalar o'ta o'zboshimchalik sharoitdagi to'la huquqsizlik, boshqaruvdagi huquqiy va axloqiy qadriyatlarning yo'qligi bilan ajrab turadi.

59. Tiraniya (mustabidlik) rejimi – yakka shaxs boshqaruviga asoslangan bo'lib, tiranning hokimiyati odatda zo'ravonlnk natijasida, ba'zan qonuniy hokimiyatning o'rmini egallash natijasida o'rnatiladi.

60. Imperiya – zo'rlik bilan tashkil etiladigan murakkab davlat bo'lib, tarkibiy qisimlarning oliy hokimiyatga bog'liqlik darajasi juda turli-tumandir.

61. Davlatning funktsiyalari – davlatning muayyan umuminsoniy va sinfiy moxiyati hamda ijtimoy maqomidan kelib chiqadigan maqsadlarga erishish uchun uning oldida turgan vazifalarni amalga oshirishga oid faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

62. Davlat mexanizmi – davlat hokimiyatini amalga oshirishga, jamiyatga davlat raxbarligini ta'minlashga yordam beradigan davlat idoralar tizimidir.

63. Davlat apparati – davlat mexanizmining bir qismi bo'lib, davlat hokimiyatini amalga oshirish uchun muayyan vakolatlarga ega davlat organlarining majmuidir.

64. Davlat organi (idorasi) – davlat apparatining tarkibiy bo'g'ini, nisbatan mustaqil qismidir.



65. Fuqaro – muayyan davlatda yashovchi, muayyan huquqiy maqomga, huquq, erkinlik va burchlarga ega bo'luvchi kishidir.
66. SHahsning huquqiy maqomi – insonning huquq normalari bilan belgilangan xolati, uning jamiyatdagi va davlatdagi o'rnidir.
67. Apatrid – bevatan, fuqaroligi bo'lmagan shahs.
68. Bipatrid – ikki yoki bir necha davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs.
69. Xuquqiy davlat – huquqning xukmronligi va qonunning ustivorligi, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi, inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanadigan, huquqni muxofaza etuvchi idoralar ishi samarali bo'lgan xaqiqiy xalq hokimiyati, yuqori darajadagi siyosiy–huquqiy madaniyatga erishgan demokratik davlatdir.
70. O'zbek milliy davlatchiligining nazariyasi – O'zbekiston davlatining vujudga kelishi va rivojlanishi, amaliy faoliyati va turli xil davlat hodisa va jarayonlari tug'risida amaliyotda tasdiqlangan bilimlar majmuini, insonparvar demokratik huquqi, davlat va fuqarolar jamiyatini barpo etishning umumiy qonuniyatlari tug'risidagi bilimlar tizimidir.
71. Huquq – davlat tomonidan belgilangan yoki ruhsat etilgan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq – atvor qoidalarining tizimi.
72. Ob'ektiv huquq – umummajburiy xulq – atvor qoidalarining yig'indisi.
73. Sub'ektiv huquq – muayyan jismoniy yoki yuridik shahsga tegishli bo'lgan huquq.
74. Tabiiy huquq – insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan huquq va erkinliklari majmuidir.
75. Pozitiv huquq – davlat tomonidan qabul qilingan qoidalar, ya'ni qonunchilik va boshqa manbalarda ifodalangan huquqdir.
76. Huquqiy tartibga solish – huquq va boshqa qonuniy vositalar yordamida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qilishni amalga oshirishdir.
77. Huquqning tartibga solish funksiyasi – amaldagi ijtimoiy aloqalar va tartiblarni mustahkamlash orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va u yoki bu sub'ektning faol hulqini ta'minlashda ifodalaiadi.
78. Huquqni muxofaza qilish funksiyasi – huquqiy himoya va yuridik javobgarlik choralari belgilash, shahslarning zichmasiga mas'uliyat yuklash tartibini o'rnatishda namoyon bo'ladi.

79. Ijtimoiy normalar – kishilar xulq – atvorining umum tan olgan, yoki ancha keng tarqalgan o'lchovlari, ko'rsatkichlari, qoidalari, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga solish vositasidir.

80. Axloq normalari – ezgulik va yovuzlik, sha'n, qadr–qimmat, adolat va noxaqlik, burch va mas'uliyat xaqidagi axloqiy tushunalarga muvofiq ravishda jamiyatda o'rnatilgan xulq–atvor qoidalari.

81. Jamoat birlashmalarining normalari – jamoat birlashmalarining o'z faoliyatini tartibga solish uchun va tashkilot a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun o'rnatilgan xulq–atvor qoidalari.

82. Odat normalari – kishilarning ko'p marta takrorlanishi natijasida odatga aylangan va shu tariqa avloddan – avlodga o'tib kelayotgan xulq – atvor qoidalari.

83. An'ana normalari – ilg'or an'analarni asrash munosabati bilan yuzaga kelgan umumlashgan va barqaror xulq–atvor qoidalari.

84. Marosim normalari – kishilarning ma'lum rasm–rusumlarni o'tkazishdagi xulq–atvor qoidalari.

85. Diniy normalar – dindorlarning xudoga, bir – biriga munosabatini, diniy tashkilotlarni tashkil qilish va ularning amal qilishini tartibga soluvchi xulq–atvor qoidalari.

86. Siyosiy normalar – aloxida shaxslar, birlashmalarini hokimiyatga munosabati masalalarini tartibga soluvchi xulq – atvor qoidalari.

87. Axloq – tarixan tashkil topgan va rivojlangan yaxshilik va yomonlik xaqidagi qarashlar, e'tiqodlarning va ularga asoslangan, kishilarning bir – birlari, jamiyat, davlat, oila, jamoa, atrofdagilar bilan munosabatlarini tartibga soladigan yurish – turish normalari.

88. Xuquq normalari – davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan, muhofaza qilinadigan utmummajburiy xulq–atvor qoidalari.

89. Imperativ normalar – qat'iy–majburiy qoidalar bo'lib, huquqning turli sohalariga qarashli ko'pchilik normalar imperativ hisobalanadi.

90. Dispozitiv normalar – xulq–atvor varianti haqidagi ko'rsatma bo'lib, sub'ektlarga qonuniy vositalar doirasidagi munosabatlarni o'z hoxishicha tartibga solish imkonini beradi.

91. Xuquq normasining mazmuni – uni tashkil qiluvchi barcha usullari xususiyatlarning birligi, ularning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi tushuniladi.

92. Gipoteza – xayotiy sharoitlarni ko'rsatuvchi yuridik normaning qismi bo'lib, ular mavjud bo'lgan yoxud bulmagan xolda norma amalga tatbiq etiladi.

93. Aniqlangan gipoteza – bunda huquqiy normada ko'zda tutilgan huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi xolatlari to'la aniqlab beradi.

94. To'la aniqlanmagan gipoteza – bunda zarur bo'lib qolgan va maqsadga muvofiq hollarda harakat qilish tartibi ko'rsatib beriladi, huquqiy normaning kuchga kirishini ko'zda tutadi. Bunday sharoitlar asosan huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi uchun sabab bo'ladi.

95. Dispozitsiya – yuridik normaning bir qismi bo'lib, xulq-atvor qoidalariga ega, huquqiy munosabat ishtirokchilari bu qoidalarga rioya qilishlari shart.

96. Imperativ (aniq ko'rsatilgan) dispozitsiya – bunda huquqiy normaning matnida dispozitsiya aniq ko'rsatiladi (masalan, JKning 97–moddasi).

97. Nisbiy belgilangan, dispozitsiya – bunda huquqiy normaning dispozitsiyasini taraflar aniqlaydi va o'zgartiradi.

98. Dispozitiv (qayta tiklovchi) yoki vakolat beruvchi dispozitsiya – bunda 1 huquqiy norma tomonlarga o'z huquq va burchlarini belgilab olish vakolatini beradi (mehnat shartnomasi).

99. Blanket dispozitsiya – bunda huquqiy normalar tegishli organga xulq-atvor qoidasini belgilash huquqini beradi (tovarlarning sifatini, qabul qilish tartibi va muddati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan yo'riqnomaga bilan aniqlanadi deb ko'rsatilgan).

100. Havolaki dispozitsiya – bunda huquqiy normaning o'z tekstida dispozitsiyani belgilamay, boshqa normaga havola qilinadi (JIKda maxkum jazoni o'taydigan tegishli rejimdagi turini JKga asosan sud tomonidan belgilanadi deyilgan).

101. To'la aniqlanmagan dispozitsiya – bunda huquq va huquqiy tartibotning umumiy talablari doirasida mansabdor shaxslarga, davlat organlariga, tashkilot va fuqarolarga o'z huquq va burchlarini o'rnatish yoki aniqlash imkoniyati beriladi (FKga ko'ra sotilgan ashyoning sifati shartnoma shartlariga muvofiq bo'lishi kerak–bunday shartlar ko'rsatilganida, odatda qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lishi lozim deyiladi).

102. Aniqlangan dispozitsiya – tegishli huquq sub’ektlariga konkret (aniq) huquq va majburiyatlar ko’rsatib beriladi.

103. Sanktsiya – yuridik normaning mantiqiy yakunlovchi tarkibiy qismi bo’lib, unda jamiyatg davlat, shaxsning huquqiy normani buzuvchilarga nisbatan salbiy munosabati ifodalanadi

104. Nisbiy belgilangan sanktsiyalar – huquqbuzarlarga nisbatan jazoning eng kam va eng ko’p chegarasini belgilaydi (JKning 164 – moddasi – 5 – 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish).

105. Mutloq belgilangan sanktsiyalar – huquqbuzarga nisbatan qo’llaniladigan jazoning hajmini aniq belgilaydi (FKga ko’ra fuqaroga yetkazilgan zarar to’laligicha qoplanishi shart).

106. Alternativ (muqobil) sanktsiya – sudga qonunda ko’rsatilgan bir necha jazodan birini tayinlash imkonini beradi.

107. Huquqiy ong – huquqiy hissiyotlar, tuyg’ular, g’oyalar, qarashlar, kayfiyatlar, tasavvurlar yig’indisi bo’lib, u odamlarning amaldagi huquqqa bo’lgan munosabatlarida ifodalanadi.

108. Madaniyat – kishilarning tabiatni, borliqni o’zlashtirish va o’zgaritish jarayonida yaratgan madaniy, ma’naviy boyliklar hamda bu boyliklarning qayta tiklash va bunyod etish yo’llari va uslublari majmui.

109. Huquqiy madaniyat – huquq haqidagi bilimlarga ega bo’lish va ularga asosan harakat qilish.

110. Huquqiy ta’lim – jamiyat a’zolarining yurish–turish madaniyatiga va ongiga huquqiy tarbiya orqali huquqiy bilimlar bilan ta’sir etish jarayonidir.

111. Huquqiy tarbiya – shaxslar va ijtimoiy guruhlarning huquqiy ongiga ko’rsatiladigan, aniq maqsadga yo’naltirilgan, tashkillashtirilgan, boshqariladigan, oldindan rejalashtirilgan va mahsus ishlab chiqarilgan huquqiy tarbiya usullari vositasida amalga oshiriladigan pedagogik ta’sir jarayonidir.

112. Huquqiy mafkura – har xil huquqiy xodisalar haqidagi nuqtai–nazar, tushuncha, g’oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidagi iboradir.

113. Huquqiy ruxiyat – ong doirasidagi huquqiy xodisalar bilan bog’liq xolda, ongda yuzaga keladigan va unga singib ketgan xis, kechikmalar soxasini ifodalaydi.

114. Ma'naviyat – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, ahloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat, mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir – birlarini taqozo etadilar.

115. Huquq manbalari – deganda, uni ob'ektiv ifodalash usullari tushuniladi.

116. Huquq ijodkorligi – normativ – huquqiy aktlarni qabul qilish, qayta ishlash va bekor qilish bo'yicha davlat, organlarining (referendum – butun xalqning) va mansabdor shaxslarning faoliyatidir.

117. Yuridik faoliyat – qonun xujjatlari bilan mustahkamlangan, ijtimoiy va ijobiy faoliyatdir.

118. Yuridik amaliyot – huquqiy tizimning muhim elementi bo'lib, hamisha huquqiy ijodkorlik yoki huquqni tadbiiq etish faoliyatining ma'lum bir natijasidir.

119. Yuridik amaliyotning funktsiyasi – ob'ektiv va sub'ektiv borliqqa bir xilda ta'sir etishning yo'nalishi bo'lib, unda amaliyotning tabiati namoyon bo'ladi va muayyanlashadi.

120. Yuridik pretsedent – sud yoki ma'muriy organning yozma yoki og'zaki qarori bo'lib, huddi shunga o'xshash ish bo'yicha bo'lgan masalani hal qilish va qaror qabul qilishdir.

121. Normativ–huquqiy akt – yozma hujjat bo'lib, vakolatli davlat organi tomonidan chiqarilgan, yashash qoidalarini belgilovchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi huquq normalaridir.

122. Individual–huquqiy hujjatlar – muayyan yuridik ish bo'yicha (xukm yoki sud qarori, korxon, tashkilot rahbari buyrug'i va h.q.) qarorlarni ifoda etuvchi davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, mansabdor shaxslarning xujjatlaridir.

123. Normativ shartnoma – normativ huquqiy aktning alohida turi bo'lib, boshqa aktlar uchun asosdir.

124. Qonunchilik – oliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan chiqarilgan normativ huquqiy aktlarni majmuidir.

125. Veto – davlat boshlig'ining parlament qabul qilgan qonun loyihasini imzolash va kuchga kiritishni rad etish.

126. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni bo'lib, eng yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan xujjatdir. Konstitutsiya–konstitutsiyaviy tizim asoslari, davlat tuzilishi, davlat boshqaruv shakli, shaxsning huquq, erkinlik va burchlari, davlat organlarini tuzish tartibi, ularning vakolatlarini belgilab qo'yadi.

127. Qonun – qonun chiqaruvchi organ tomonidan mahsus tartibda chiqariladigan, ijtimoiy munosabatlarning eng muhimlarini tartibga soladigan va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan normativ – huquqiy hujjatdir.

128. Qonunosti hujjatlar – qonun asosida qabul qilingan va unga zid bo'lmagan xujjatlardir.

129. Kodifikatsiya – amaldagi qonunchilik mavjud tizimining jiddiy o'zlashtirilishi bo'lib ilgari bo'lmagan xujjatning ishlab chiqilishida yoki o'zlashtirilishida printsiplial yangi xujjat vujudga keladi.

130. Kodeks – qonun xujjatining kodifikatsiyalashtirilgani aloxida huquq sohasi normalarining aniq tartibda birlashtirilganligidir.

131. Inkorporatsiya – tizimga solishning shakli bo'lib, bu jarayonda amaldagi tarqoq qonun va normativ huquqiy xujjatlarni xronologik yoki alifbo tartibida, sohalar bo'yicha to'la yoki qisman turli to'plamlarga birlashtirish.

132. Konsolidatsiya – tizimga solish shakli bo'lib bu jarayonda ilgari e'lon qilingan huquqiy hujjatlar u yoki bu masala bo'yicha birlashtirish.

133. Huquq tizimi – ijtimoiy munosabatlarning tizimi huquqning ichki tuzilishi bilan ob'ektiv bog'langan, huquqiy normalarning izchil tarzda joylashtirilishining ifodasidir.

134. Huquq sohasi – ijtimoiy munosabatlarning bir hil guruhini batafsil tartibga solib turuvchi o'ziga hos yuridik normalar majmuidir.

135. Huquq instituti – o'xshash munosabatlarni tartibga soluvchi alohida huquqiy noramlar guruhidir.

136. Huquqiy tartibga solish predmeti – huquqiy normalar guruhining boshqariladigan ob'ekti sifatida ishtirok etadigan, ijtimoiy munosabatlarning sifati, o'xshash jihatidan guruhi tushuniladi.

137. Huquqni qo'llash – vakolatli organlar va shaxslarning o'z maqsadiga ko'ra huquqiy normalardan foydalanadigan sub'ektlarning ularga berilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishlarida yordam ko'rsatishga oid hokimiyat tashkmliy faoliyatidir.

138. Huquqdagi bo'shliq – bu ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish talablariga va ishni amaliy jihatdan hal qilish zarurligida ifodalangan, amaldagi qonunning mohiyat va mazmuni jihatidan hayotiy faktlarni tartibga soluvchi irodasini boshqacha tarzda ifodalash uchun huquq normasini butunlay yoki qisman yo'qligidir.

139. Qonun analogiyasi – koʻrishyotgan muayyan ishni alohida qonun normasi yoʻqligi tufayli shunga oʻxshash boʻlgan munosabatni tartibga soluvchi qonunga asoslanib turib hal qilish tushuniladi.

140. Huquq analogiyasi – muayyan ishni huquqiy tizimining umumiy asoslar va mazmuniga qarab hal qilishdir.

141. Huquqni sharhlash – uning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy vazifasi, amaliy ahamiyatini aniqlash va tushuntirib borishdir.

142. Kazus – hodisa, xayotiy fakt va kazual sharhlash–aniq bir oddiy kundalik hodisaga qoʻllanadigan tushuntirishdir.

143. Huquqiy munosabatlar – amaldagi qonunchilikning kishilar hatti-harakatiga taʼsiri natijasida vujudga keladigan munosabatlardir.

144. Huquqiy subʼektlar – huquq subʼekti boʻla olish qobiliyatidir. Huquq normasi huquqiy subʼektlilik va yuridik fakt huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shart –sharoitlari hisoblanadi.

145. Yuridik texnika – huquqiy munosabatlarni tartibga solish qoida va usullarining eng qulay mahsus vositalari yigʻindisidir.

146. Huquqiy layoqat – shaxsning huquq normalariga koʻra subʼektiv huquq va yuridik burchlarga ega boʻlish qobiliyatidir.

147. Muomala layoqati – shaxsning oʻz harakatlari bilan huquq va majburiyatlarni bajara olish qobiliyati.

148. Delikt layoqati – shaxsning oʻz hatti–harakatlari, eng avvalo huquqbuzarligi uchun javob bera olish qobiliyatidir.

149. Subʼektiv huquq – huquqiy munosabatlarning subʼekti, yaʼni vakolatli shahsga tegishli huquqdir.

150. Yuridik majburiyat – bu huquqiy munosabat ishtirokchilarining tegishli huquqiy normaga asosan oʻzlarining burchi boʻlgan xarakatini amalga oshirishlari yoki muayyan xarakatni sodir etishdan oʻzlarini tiyishlaridir.

151. Huquq obʼekti – bu kishilarning shahsiy hamda ijtimoiy manfaat va eʼtiyojlarini qndirishga xizmat qiladigan turli moddiy, maʼnaviy va boshqa ijtimoiy boyliklar xisoblanadi.

152. Jismoniy shahslar – huquq va muomala layoqatiga ega boʻlgan mazkur davlatning fuqarolari bilan bir qatorda ushbu davlatda yashovchi chet el fuqarolari (apatridlar) dir.

153. Yuridik shaxslar – bu davlat organlari, jamoat tashkilotlari, xo'jalik birlashmalari bo'lib, vakolatli davlat organi tomonidan yoki uning ruxsati bilan tashkil topgan, o'zlarining mulklariga, ma'lum tashkiliy musatqillikka ega bo'lgan o'z nomi bilan ma'lum huquqiy va muomala layoqatiga ega bo'lgan mulkiy munosabatlarda mustaqil qatnasha oladigan huquq va majburiyatlar egasidir.

154. Yuridik fakt – huquq normalari, huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki tugashi bilan bog'liq aniq xayotiy shart–sharoitlardir.

155. Harakat – huquqiy munosabatlar qatnashchilarining erki bilan bog'liq faktlardir.

156. Hodisalar – huquqiy munosabatlar qatnashchilarining erki bilan bog'liq bo'lmagan yuridik faktlardir.

157. Nisbiy hodisalar – kishilarning paydo bo'lgan huquqiy munosabatga hech qanday aloqasi bo'lmasa ham, kelib chiqishi kishilar erki bilan bog'liq faktlardir.

158. Mutloq hodisalar – kelib chiqishi inson erki bilan umuman bog'liq bo'lmagan xodisalardir (tabiiy ofat).

159. De–fakto – (lotincha xaqiqatda amalda, fakt sifatida) yangi davlatning xalqaro huquqda qisman e'tirof qilinishi.

160. De–yure – (lotincha yuridik asosda, rasman, rasmiy ravishda, qonun bo'yicha) yangi davlatning xalqaro munosabatlarda qatnashishining boshqa davlatlar tomonidan to'la e'tirof etishga.

161. Yuridik tartib normada ko'zda tutilgan huquqiy oqibatlar kelib chiqishi uchun zarur bo'lgan faktlarning yig'indisi.

162. Huquqiy hatti–harakatlar – shaxs hatti–harakatining yuridik normalarga mos bo'lishidir.

163. Huquq buzilishi – noqonuniy hatti–harakat bo'lib, shaxsga, mulkka, davlatga yoki umuman jamiyatga zarar keltiruvchi ijtimoiy xavfli qonunga zid harakatdir.

164. Nojo'ya hatti–harakat – huquq buzilishi hisoblanib, boshqaruv, mehnat, mulkiy va boshqa munosabatlarga to'sqinlik qiluvchi, lekin ijtimoiy xavfli, jinoyat hisoblanmaydigan huquq buzilishidir.

165. Huquqbuzarlik – muhofaza qiluvchi huquqiy munosabatlarni vujudga keltiruvchi yuridik faktdir.



166. Jinoyat huquqida xato – shahsning sodir qilgan jinoyat xolatlariga bo'lgan noto'g'ri munosabatidir.

167. Yuridik xato – shahsning sodir qilingan qilmishning jinoyat huquqiy motivi xaqida noto'g'ri tasavuri tushiniladi.

168. Faktik xato – shahsning jinoyat tarkibining ob'ektiv belgisi hisoblanadigan xolatlar to'g'risida notug'ri tushunchaga ega ekanligi tushiniladi.

169. Vindikatsiya – (lotincha da'vo qilaman) – mulk egasi (da'vogar)ning o'z mulkini noqonuniy tarzda egallab olgan boshqa shahsdan sud orqali talab qilishi.

170. Qasd – shahs o'z hatti – harakatining huquqqa hilofligini va uning natijasida ijtimoiy xavfli nohush oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini bilibgina qolmay, balki shu oqibatlar kelib chiqishini hohlab (to'g'ri qasd) yoki ongli ravishda yo'l qo'yishi (egri qasd).

171. Jinoyat – jinoyat qonuni bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

172. Ayb – shahsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishi va uning oqibatlariga (qasddan yoki extiyotsizlik ko'rinishidagi) bo'lgan ruxiy munosabati tushiniladi.

173. Kvalifikatsiya – (lotincha – qualis – qanday, facere – qilmoq) jinoyat va fuqarolik ishlarini tergov va sud organlarida kvalifikatsiya qilinishi – muayyan jinoyat va noqonuniy harakatga qonunda belgilangan moddani aniqlab qo'llash; 2) kasb, ixtisos.

174. Korruptsiya – (lotincha “corruption” poraga sotilish tanazzul) nansabdor shahsning boyish maqsadida o'z mansabi bilan bog'liq huquqlarini suiste'mol qilishdan iborat jinoyati.

175. Ijtimoiy xavfli qilmish – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish.

176. Aybsizlik prezumtsiyasi – qonunda mustahkamlangan tegishli shahslar va organlar ishning barcha holatlarini tekshirishga, unga bilidirilgan barcha shubhalarni yo'qotishga majbur etadi, chunki har qanday gumon ayblanuvchiniig foydasiga hal qilinadi.

177. Yuridik javobgarlik – sodir etilgan huquqbuzarlik uchun shahsning davlat-hokimiyat xususidagi ma'lum mahrumliklarga duchor bo'lishidir.

178. Versiya – tergov va sud faoliyatida tergovchi yoki sudning voqea va faktlarning mavjudligi yoki yo'qligi xaqidagi taxmini.

179. Verdikt – maxsus chiqarilgan sud maslahatchilarining ishtirokida koʻrilgan ish yuzasidan sudlanuvchining aybli yoki aybsizligini aniqlaydigan holat haqidagi xulosa.

180. Yurisdiksiya – (lotincha sud ishi) huquqiy masalalarni hal qilish, sudlov ishlarini olib borish huquqi.

181. Instantsiya – (lotincha yaqinlik, bosqich) biror muassasaning oʻsha sistemadagi yuqori tashkilot va quyi tashkilotga nisbatan tutgan oʻrnini bildiradi. Sud instantsiyasi esa muayyan huquq doirasiga ega boʻlgan sudda ishni koʻrilish bosqichini anglatadi.

182. Kafolatlash – davlatning oʻz fuqarolariga huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun tegishli sharoitlar yaratish va ularni kerakli vositalar bilan taʼminlashdir.

183. Mafkura – (arabcha – nuqtai nazar va eʼtiqodlar tizimi) jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va gʻoyalar majmui.

184. Istiqlol – (arabcha – koʻtarilish) – har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti.

185. Siyosiy institutlar – jamiyatning qaror topgan davlat tashkiloti muassasalari va undagi lavozimlar tarkibi tushuniladi. Ular muayyan siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar.

186. TSivilizatsiya – (arabcha – eʼtiqod, ishonch) – ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kyolgan insonning dunyoqarashini aks ettirgan ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning xodisilarini oʻziga xos tarzda inʼikos (aks) ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri.

187. Gʻoyalar - eng yuksak va ahamiyatga molik butun koinot olami aql–idrok uchun xarakterli xodisalar tushuniladi.

188. Muholifat - bu rasmiy siyosatga hukmron qarashlarga mos boʻlmagan nuqtai nazar, aloxida siyosiy yoʻl, demokratiyaning muhim belgisidir.

189. Musulmon huquqi – VII–X asrlarda arab xalifaligi davrida islom dini asosida paydo boʻlib, uning asosini shariat normalari tashkil qiladi. Unga asosan jamiyat oʻz huquqini yaratmasdan bu huquq normalari Alloh tomonidan abadiy berilgailigi sababli kishilar shu huquqiy normalarga amal qilishi kerak.

190. Fiqx – (islom huquqshunosligi) – deb Qurʼoni Karim, xadisi– sharif, ijmoʻ, qiyos va boshqa manbalardan toʻgʻri xukm chiqarishga aytiladi. Fiqx bu kundalik xayot tarzining islom sharoitiga muvofiq boʻlishini taʼminlovchi qonundir.

191. Shariat – bu islom dinining qonunlari to'plamidir. SHariat xukmlarini chiqarishda mujtaxidlar eng avvalo islom qonunlarining asosiy manbai bo'lgan Qur'oni Karim va payg'ambarimiz alayxissallomning sunnatlariga asoslanganlar. SHuningdek, Payg'ambarimiz stayxissadlom o'zlari ruxsat bergan ijmo' va qiyos masalalariga ham amal qilganlar.

192. Qur'on – to'rtta ilohiy kitoblarning oxirgisi. Yer yuzi musulmonlarining dasturul–amali, diniy axkomlar manbai va Olloxning so'zi bo'lib, balog'at va fasoxotning yuqori uslubida aytilgan.

193. Sunnat – Islom shariatining asosiy manbalaridan ikkinchisi bo'lib, arabiy «yo'l» degan ma'noni bildiradi. Sunnat Rasululloxdan naql qilingan xadisi-shariflar orqali aniqlanadi. Xadisi – shariflarda Rasulullox alayxissalomning so'zlari, qilgan ish faoliyatlari va saxobalar tomonidan qilingan ishlarni ma'qullanganlari to'g'risida xikoya qiladi. SHu uch xil uslubning xar biri sunnat deyiladi.

194. Ijmo' - Rasuli akram sallolloxu alayxi vassallamning vafotlaridan so'ng bir zamonda yashagan hamma muxtaxidlarning na Qur'oni Karimda va na xadisi sharifda aniq javobi topilmagan islom dinidagi masalalar yoki jamiyat xayotidagi biror voqealarning shar'iy xukmi haqida ittifoq bo'lishlariga aytiladi.

195. Qiyos – deb zikr etilgan uchta manbada topilmagan ba'zi masalalarni topilganlariga taqqoslab xukm chiqarishga aytiladi.

196. Qo'shimcha manbaalar va usullar - bular istixson, masolixi mursala, rivoyat, istisxob, fatvo, bolvoi oila, zaruratdir.

197. Imon - arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi «ishonch» demakdir. Shariatda esa janob payg'ambarimiz Muxammad alayhissalom Olloh Taolo tarafidan keltirilgan barcha xabarlariga til bilan iqror etib, dil bilan tasdiqlashga aytiladi. Imon uch xil bo'ladi: Taxqiqiy imon, Istidloliy imon, ya'ni dalilliy imon, Taqlidiy imon.

198. Din – ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan insoning dunyoqarashini aks ettirgan ijtimoiy xayotni, voqe'likni, uning xodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos (aks) ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

199. Ra'y – bu bir xukmni chiqarishda mujtaxid o'zining shaxsiy fikri va ra'yi bilan ish ko'rishiga aytiladi. Bu xayotda uchragan va qo'llanilgan masala.

200. Ilohiy kitoblar – Odam alayhissalom, Idris, Ibroxim alayhissallomlarga nozil bo'lgan qudratli ilohiy kitob bir necha saxifadan iborat bo'lsa, Muso alayhissalomga Tavrot kitobi, Dovud alayhissalomga Zabur kitobi, Iso alayhissalomga Injil kitobi va Muxammad alayhissalomga Qur'on kitobi nozil bo'ldi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Davlat va huquq nazariyasi.- T., TDYuI, 2006 y.
2. Agzamxodjaeva A. Pravovie osnovi gosudarstvennoy nezavisimosti Respubliki Uzbekistan. (monografiya).-T.: O'zbekiston, 1993.85-93-b
3. Z. Islomov Davlat va huquq: umum nazariy masalalar -T.: Adolat, 2000.
4. A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriev. Davlat va huquq asoslari: Darslik. - T.: Sharq, 2002.
5. Z.M. Islamov Teoriya gosudarstva i prava CH 1–2. -T.: Adolat, 1997 –1998.
6. K.T. Xolmuminov Davlat va huquq nazariyasi -T.: Adolat, 2001.
7. A.Saidov, U. Tojixonov Davlat va huquq nazariyasi, 1-2-jild. -T.: Adolat, 2001
8. Yuridik ensiklopediya. -T.: Sharq, 2001.

### **Elektron resurslar**

1. <http://Allpravo.ru>
2. <http://Internet-law.ru>
3. <http://dissertation1.narod.ru/avtoreferats1>
4. <http://www.library.by/data>
5. <http://www.lawportal.ru>
6. <http://www.legislature.ru>
7. <http://www.ziyo.net>.
8. <http://www.edu.uz> .
9. <http://www.Lex.uz>.